XALQ DEPUTATLARI NARPAY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-18-133-7-98-K/25 Narpay tumani

2026-yilda Narpay tumani bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445- va 452-moddalariga muvofiq, tuman soliq inspeksiyasining 2025-yil 5-dekabrdagi P-09845-sonli, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Aliyevning 2025-yil 9-dekabrdagi 8392-sonli xatlariga muvofiq, xalq deputatlari Narpay tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, o‘n sakkizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445- va 452-moddalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Soliq inspeksiyasi hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda tuman hokimligining 2026-yil uchun belgilangan mahalliy byudjet prognozidan kelib chiqib, tuman bo‘yicha 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsientlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

3. 2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar 1-ilovaga hamda noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Aliyev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (U.Ruziyev), tuman soliq inspeksiyasi (Z.Turdiyev) bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari (S.Jabborov), “Navqiron Narpay” gazetasi muharriri (T.Toshmurodov)lar mazkur qarorni tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

6. Ushbu qarorni bajarilishini nazorat qilish Narpay tumani Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (U.Namazov)ga, ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Aliyev) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Sessiya raisi **XUSANOVA RISOLAT ISMOILOVNA**

Xalq deputatlari Narpay tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-133-7-98-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar

(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	**Narpay tumani**	1,10	1,10	1,10	1,10	1,10	1,10	1,10	1,10

Xalq deputatlari Narpay tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-133-7-98-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga 2026-yil uchun qo'llaniladigan koeffitsientlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig'anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag'al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Narpay tumani	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,10